

**UMAROV BAXTISHOD
QO‘YLIYEV ULUG‘BEK**



**BUKHARA STATE
UNIVERSITY
TEACHER OF BUKHARA
HISTORY DEPARTMENT**

M.S. ANDREEV - THE GREAT EASTERN SCIENTIST

М. С. АНДРЕЕВ - ВЕЛИКИЙ ВОСТОЧНЫЙ УЧЕНЫЙ

M.S.ANDREYEV –BUYUK SHARQSHUNOS OLIM

Abstract. The article presents information about Mikhail Stepanovich Andreev, a prominent orientalist of the Soviet era, a leading specialist in Arabic, Persian and Turkish languages, a researcher of historical monuments of Bukhara.

Keywords: M.S. Andreev, Bukhara, historical monuments, orientalist.

Аннотация. В статье представлены сведения о Михаиле Степановиче Андрееве, крупном востоковеде советской эпохи, ведущем специалисте по арабскому, персидскому и турецкому языкам, исследователе исторических памятников Бухары.

Ключевые слова: М.С. Андреев, Бухара, исторические памятники, востоковед.

Annotasiya. Ushbu maqolada sovet davrining buyuk sharqshunos olimi, arab, fors va turk tillari bo‘yicha yetuk mutaxassis, Buxoro tarixiy obidalari bilimdoni Mixail Stepanovich Andreyev haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlari: M.S.Andreyev, Buxoro, tarixiy obidalar, sharqshunos

KIRISH (INTRODUCTION)

Yurtimizda tariximiz va madaniyatimizni ifoda etadigan moddiy boyliklarimiz muhim tarbiya vositasi hisoblanadi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy boyliklar bitmas-tuganmas xazina yoshlar ongiga singdiriladigan, ularni barkamol avlod qilib tarbiyalaydigan bebaho omillardir. Ayniqsa, axborot hurujlari avj olgan globallashuv sharoitida mana shu omillar asosida tarbiya vositalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning mustaqil erkin tafakkurining rivojlanishi uchun allaqanday chetdan oqib kelgan g‘oyalar va qarashlar emas dunyoni hayratga solgan xalqimizning moddiy-ma’naviy merosi haqiqiy tayanch kuchga ega. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, «Har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an‘analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi [1]», -degan so‘zlari

boy merosimizga qanday munosabatda bo'lish kerakligini ko'rsatib beradi. Darhaqiqat, mustaqilligimiz sharofati ila yurtimizda ko'plab tarixiy me'morchilik obidalar qayta tiklandi va ta'mirlandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Ma'lumki, mustaqillik yillarida Samarqand shahrining 2750 yillik, Shahrisabz va Qarshi shaharlarining 2700 yillik, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlarining 2500 yillik, Toshkent shahrining 2200 yillik, Marg'ilon shahrining esa 2000 yillik yubileylari nishonlandi. Buxoro shahri 2500 yillik tarixga egaligini isbotlashda 1956-1975-yillarda akademik Ya.G'ulomov rahbarligidagi Moxandaryo arxeologik otryadi, 1977-1980-yillarda akademik A. Muhammadjonov rahbarligidagi Buxoro arxeologik ekspeditsiyasi ko'p kuch sarflaganligi ma'lum. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Buxoroda sizot (yerosti) suvlari yuqorida bo'lganligi uchun 14-15 metrdan so'ng madaniy qatlamlarni zax suvlari bosib qolgani, materikgacha yetib borishdagi qiyinchiliklar, muvaffaqiyatsiz urinishlarning kuzatilgani ham sir emas. A.Muhammadjonov 1998 yilda «Fan» nashriyotida chop etilgan «Buxoro shahri 2500 yoshda» risolasida ta'kidlaganidek, maxsus nasoslar bilan zax suvlarini chiqarib tashlash, arxeologiya fani yutuqlaridan foydalanish orqali 14 metr hamda 20 metr chuqurlikda saqlangan qadimgi shahar devorlari qoldiqlarining topilishi [2:12]va Buxoro qadimdan mudofaa inshootlari bilan o'ralgani uning yoshini belgilashda qimmatli ashyoviy dalil bo'ldi.

Tadqiqotlarning hozirga qadar bo'lgan sarhisobi shuni ko'rsatadiki, qadimiy Buxoro tarixini mukammal o'rganish to'la yakuniga yetmagan, muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, Buxoro shahrining bunyod etilish sanasi, ya'ni uning yoshi bilan bog'liq muammo keyingi yillarda qizg'in munozaralarga sabab bo'lmoqda. O'tgan asrning 50-80-yillarida Buxoro eski shahar qismining yetti joyida arxeologik qazish ishlari olib borilib, shahar qadimgi daryolar ichida, botqoqlik ustida tiklangani, asrlar davomida 20 metrdan oshiqroq madaniy qatlam yuzaga kelgani aniqlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosit tahlil usuliga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

XX asr davomida Buxoro tarixi masalasi, uning etnografiyasi va arxeologiyasiga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. Xususan, Ya.G'ulomov, V.A.Shishkin, A.Asqarov, O.A.Suxareva, X.Duke, U.Islomov, M.Qosimov, F.Qosimov, V.A.Bulatova va boshqalar tadqiqotlar olib borib, voha tarixi va arxeologiyasi bo'yicha ulkan yangiliklarni amalga oshirishgan. Ushbu nomlar qatorida Buxoro vohasi me'moriy obidalari sarkori hisoblanmish Ark qo'rg'onini tadqiq etgan Mixail Stepanovich Andreyev alohida o'rin tutadi.

Mixail Stepanovich Andreyev 1873-yil 24-sentyabrda Turkiston general-gubernatorligi poytaxti Toshkentda dunyoga kelgan. 1883-1889-yillarda Toshkentdagi erkaklar gimnaziyasida, 1889-1895-yillarda Turkiston o'qituvchilar seminariyasida tahsil olgan[3]. Seminar ishtirokchisi M.S.Andreyev Toshkentning eski shahar qismiga tez-tez borib turar va bo'sh vaqt topishi bilan madrasalardagi dars jarayonlarini kuzatish uchun tashrif buyurardi. Bu vaqtda u qozi Sharif-Xo'ja oilasi va Eshon Qulidodhoh madrasasi mudarrisi Ubaydullo-Maxsum bilan tanishdi. Mixail Stepanovich seminarida

o'rganganlarini amalda qo'llash maqsadida Ubaydullo-Maxsumni u bilan birga madrasada arab, fors va turk tillari dars o'tishga ko'ndiradi. Shu tariqa uning ilmiy faoliyati boshlanadi.

O'qishni tamomlagandan so'ng u ikki yil davomida o'qituvchilar seminariyasida dars bergan, 1896-yildan Ichki ishlar vazirligining maxsus topshiriqlar bo'yicha xodimi A.A.Polovsyevning yordamchisi sifatida O'rta Osiyoda arxeologik va etnografik tadqiqotlar bilan shug'ullangan, Sankt-Peterburgga tashrif buyurgan. U yerda V.V.Radlov, S.F.Oldenbourg, V.V.Bartold, K.G.Zaleman bilan uchrashdi [4]. U 1898-yil qishini Parijda Polovsov bilan birga o'tkazadi va fransuz tilini o'rganadi. M.S.Andreyev rasmiy vazifalaridan tashqari Fransiya Milliy kutubxonasining Sharq bo'limida ham ishlagan[5:11].

1902-yilda M.S.Andreyev O'sh orqali Pomirga, Vaxonga, Ishkoshimga sayohat qiladi. Sayohatning ilmiy natijasi A.A.Polovsov bilan birgalikda Ishkoshim va Vaxon qabilalarining etnografiyasiga bag'ishlangan ilk risola nashri bo'ldi. M.S.Andreyev sayohat davomida, Toshkentda yashab, o'sha paytda fanga deyarli noma'lum bo'lgan yozg'ulom tiliga oid ba'zi materiallarni to'plashga muvaffaq bo'ldi.

1921-yilda M. S. Andreyev Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Turkiston tub aholisi hayotini o'rganish bo'yicha ilmiy komissiya a'zosi etib tayinlanadi va respublikaning etnografik xaritasini tuzish ekspeditsiyasiga rahbarlik qiladi. 1921-1922-yillarda ekspeditsiya Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax va Xo'jand tumanlarida ishlagan. 1923-yilda M. S. Andreyev Chirchiqning yuqori oqimida, 1924-yilda Qorategin, Hisor va Yag'nobda bo'ldi. 1925-yilda uning rahbarligida ekspeditsiya Toshkent – O'ratepa – Zarafshon vodiysi – Yag'nob – Anzob dovoni – Dushanbe – Qorategin– Darvoz– Pomir viloyati–Pomir – O'sh yo'nalishi bo'yicha ishladi. Ekspeditsiya natijasi eng boy etnografik kolleksiya to'plami yaratildi[6:119-120].

1934-yil oxiridan 1940-yilgacha M. S. Andreyev Toshkentdagi San'at muzeyida O'rta Osiyo xalqlari san'ati bo'yicha maslahatchi bo'lib ishlaydi. 1936-yilda muzeyning Buxoro va Xivaga amalga oshirilgan etnografik-badiiy ekspeditsiyasiga rahbarlik qilgan. 1937-yilda muzeyning navbatdagi ekspeditsiyasi Nurota qishlog'i va Marg'ilon shahriga borgan.

1940-yilda M.S.Andreyev ko'hna Buxoro Arki bo'yicha keng va rang-barang materiallar to'plashni maqsad qilgan yangi ekspeditsiya tashkil qildi. Uning rafiqasi va hamkasbi A.K.Pisarchik ushbu ekspeditsiyada ishtirok etdi[7:24].

1943-yil 3-noyabrda M.S.Andreyev o'sha paytda tashkil etilgan O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi) etib saylandi. 1944-1947 yillarda M.S.Andreyev O'zbekiston SSR FA Tarix va arxeologiya institutida etnografik guruhiga rahbarlik qiladi va 1947-yilda Stalinobodga ko'chib o'tadi va u yerda Arxeologiya va etnografiya muzeyini ochish bilan shug'ullanadi.

Sovet davri tarixchi-etnograf olimlari orasida M.Andreyev Buxoro me'moriy obidalari va Ark qo'rg'oni bo'yicha yetuk mutaxassis hisoblanadi. Olim ilmiy faoliyati davomida 60 dan ortiq tadqiqot ishlarini nashr qildirgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, yurtimizning boy tarixi va madaniy merosiga turli davrlarda nafaqat mahalliy, balki jahon tarixchi, olimlarning qiziqishi asrlar davomida so'nmadi. Chor

Rossiyasi davrida ham, undan keyingi sovet hukumati davrida ham o'lkamiz hududida mavjud bo'lgan tarixiy - me'moriy obidalarimiz ustida bir qancha tadqiqot va ilmiy izlanishlar olib borildi. Mazkur ilmiy maqolamiz qahramoni M.S Andreyevning olib borgan ilmiy izlanishlari fikrimizning yaqqol isboti. O'lkamizning asrlarga tatigulik tarixiy, madaniy me'orisini biz tarixchilar nafaqat chuqur o'rganishimiz balki, ularni shu yurtning farzandi sifatida asrab-avaylaylab, kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishimiz zarur. Zero avlodlarimiz biz kabi o'z tarixini o'rganish orqali, ularda ham biz kabi faxr - iftixor tuyg'usi jo'sh urishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://xs.uz/uzkr/post/til-millatning-manavij-bojligi>
2. Мухаммаджонов А.Р. Бухоро шаҳри 2500 ёшда (Археологик лавҳалар ва тарих). –Т.: 1998.
3. <http://collection.kunstkamera.ru/entity/PERSON/71>
4. <https://relstud-hist.spbu.ru/articles/andreev-mihail-stepanovic>
5. Писарчик А.К. Михаил Степанович Андреев, -Душанбе. 1978.
6. Акрамова Х.Ф. Таджикивед М. С. Андреев. — В кн.: Из истории культурного строительства в Таджикистане. Вып. 2, Душанбе, 1970
7. Акрамова Х. Ф. Жизнь и научная деятельность члена-корреспондента АН СССР Михаила Степановича Андреева. Душанбе, 1969.
8. Temirov F., Umarov B. Practical application of family, marriage and inheritance rights in bukhara emirates // Scientific progress. - 2021. - Т. 2. - №. 1. - S. 1201-1207.
9. Temirov F. Xalikova N. From the history of foreign policy and development of diplomacy in the emirates of bukhara // Scientific progress. - 2021. - Т. 2. - №. 1. - S. 1276-1282;
10. Temirov F. PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. Volume: 2 Issue: 01 | 2022
11. Temirov F. Of the journalistie work of Sadriddin Ayni Concerning Issues of Bukhara history. Irish Interdisciplinary of Science & Research (IJSR) Vol.6, Iss.1.Pages,12-17. January-March 2022
12. UMAROV B. ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD //International Journal of Intellectual Cultural Heritage. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 94-100.
13. ogli Umarov B. B. FAMILY AND MARRIAGE RELATIONS IN NA KISLYAKOV'S RESEARCH //Journal of Central Asian Social Studies. – 2021. – Т. 2. – №. 02. – С. 127-135.
14. Umarov B. НА КИСЛЯКОВ-ПОПУЛЯРИЗАТОР МУЗЕЕВ И ИСТОРИИ ТАДЖИКСКОГО НАРОДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.